

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI BADIY-ESTETIK TAHLIL VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Z.B.Uteniyazov – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: o'qish savodxonligi, boshlang'ich sinf, badiy-estetik tahlil, o'qish texnikasi, nutqiy rivojlanish, metodik yondashuv, tez o'qish.

Ключевые слова: грамотность чтения, начальная школа, художественно-эстетический анализ, техника чтения, развитие речи, методический подход, быстрое чтение.

Key words: reading literacy, primary school, artistic and aesthetic analysis, reading technique, speech development, methodological approach, fast reading.

Kirish. O'qish savodxonligi tabiiy emas, balki vaqt o'tishi bilan shakllanadigan murakkab qobiliyatdir. Bolalar o'qishni ko'rsatmalar, mashqlar va turli nashrlar orqali o'rganadilar. Bu jarayon alifbodan boshlanib, harflar, tovushlar va so'zlarning o'zaro bog'liqligini tushunish orqali shakllanadi. O'quvchilarning savodxonligini oshirish uchun metodik ta'minot, darsliklar intrigi (qahramonlar va ularning fikrlarini solishtirish), yagona shartli belgilar tizimi va syujet elementlarini ajratishga qaratilgan tizim muhimdir.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini badiy-estetik tahlil vositasida rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilish orqali amalga oshirilishi mumkinligini qayd etish joiz:

1. O'quvchilarni o'qishga qiziqitirish. Motivatsion yondashuvni kuchaytirish, intrigali va jozibali materiallar orqali o'qishga jalb qilish.

2. O'qish texnikasini takomillashtirish. Tezlik va aniqlikni oshirish uchun mashqlar, matnlarni qayta o'qish va muhokama qilish.

3. Nutqni rivojlantirish. Qiziqarli savollar bilan fikrlashga undash, fikr almashish orqali nutq malakasini oshirish.

4. Badiiy asarlarni tahlil qilish. Matn qismlarini ajratish, qahramonlarni baholash, muallif g'oyasini anglash va badiiy vositalarni tushunishga yordam beruvchi mashqlar.

5. Boy nutq zaxirasini shakllantirish. Yangi so'z va iboralarni o'rganish, ularni nutqda qo'llash ko'nikmasini rivojlantirish.

6. Matn bilan ishlash malakasini oshirish. Axloqiy-emotsional ma'nolarni ajratish, diqqat bilan o'qish, tahlil qilish va ma'lumot topishga o'rgatish.

O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilarga so'zlarni bo'g'inlarga ajratib o'qish, tez aytish yoki talaffuzi qiyinroq bo'lgan iboralarni mashq qildirish tavsiya etiladi. Bo'g'inlarga ajratib o'qish mashqlari o'quvchilar diqqatini oshirish va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatadi. Masalan, do-i-ra, gul-qay-chi. Bo'g'inlarga ajratib o'qish o'quvchilar nutqini ravon qiladi, fikrini to'g'ri ifodalash qobiliyatini oshiradi hamda so'zlarning tuzilishini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Qiyin talaffuz qilinadigan tez aytishlar yoki iboralarni takrorlash orqali o'quvchilar nutq apparatini rivojlantiradilar va harflarni to'g'ri, aniq talaffuz qilishni o'rganadilar. Jumladan, "Chumchuq chug'urchuqni cho'qimasa, chug'urchuq chumchuqni cho'qimaydi", "Shu mushuk, shum mushuk, shumshuk mushuk", [4] va hk.

O'qish tezligi matnni tushunishga xizmat qiladi: me'yoriy tezlik mantiqiy markazni aniqlashni osonlashtirsa, ortiqcha tezlik tushunishga to'sqinlik qilib, mexanik o'qishga olib keladi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, fe'l-atvori va matn murakkabligiga qarab tezlik talab qilinadi. Tezlikni matnning soddasi yoki murakkabligiga ko'ra asta-sekin oshirib, tushunish bilan muvofiqlashtirish zarur. O'qituvchi har bir o'quvchining individual ritmini

kuzatib, imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Bu o'qish savodxonligi va tushunishni oshiradi. Juda tez o'qigan o'quvchi sekin o'qiydigan tengdoshini o'qitish orqali sinf tempini muvozanatlashi mumkin, bu o'qish sifatini yaxshilaydi.

O'qish tempini boshqarishga qaratilgan bir qancha usullar mavjud bo'lib, ulardan biri savollar qo'yish orqali o'quvchini jarayonga tayyorlashdir. Bu o'quvchini o'qishdan oldingi savollarga javob berishi kutilishini bilish hamda matnga e'tiborliroq bo'lish va tez o'qishdan saqlanishga undaydi. Dramalashtirilgan o'qish esa o'quvchi jarayonda qahramon obrazini aks ettirishi uchun o'qish tempini muvofiqlashtirishi kerakligini ko'zda tutadi. Agar jarayonda bir nechta o'quvchi ishtirok etsa, ularning har biri o'z o'qish tempini boshqalarnikiga muvofiqlashtiradi. Dialog o'qishda ikki o'quvchi ishtirok etadi. Savollarni yaxshi o'qiydigan o'quvchi o'qiydi, bu esa javoblarni o'qiydigan o'quvchining tempini kuchli o'quvchilikka yaqinlashtiradi. She'rlarni yoddan o'qishda o'rtacha temp va maksimal ifodalilikni ta'minlashga harakat qilish maqsadga muvofiq. Bunday mashqlar epik matnlarni ham mos tempda o'qishga yordamlashadi. "O'qish savodxonligi darslarida she'riy asarlarni jarayonining muhim jihatlaridan biri sifatida poetik tafsillarni ajratish, o'quvchilarni shoirning obraz yaratish mahoratidan bahramand etish va shu jarayonda badiiy tafakkurini o'stirish yuqori samaradorlik kasb etadi" [2].

Turli darajada o'qiydigan o'quvchilarni navbatma-navbat o'qitish temp muvozanatini ta'minlaydi va sinfda hamkorlik hamda rivojlanish muhitini shakllantiradi. Bu usul doimiy qo'llanilsa, individual va sinf darajasida o'qish tezligi oshadi. Notanish so'z yoki iboralarni tushuntirishda o'quvchilarga yordam berish usullari qatoriga ko'rsatish va misollar bilan izohlash kiradi. Agar so'z tushunarsiz bo'lsa, tasvirlar yoki real misollar (masalan, "lavh" so'zi uchun rasm yoki tavsif) yordamida tushuntiriladi. So'z ma'nolarini sinfda muhokama qilish o'qituvchining matnni o'qib, o'quvchilar bilan birgalikda izohlashini o'z ichiga oladi. Qarama-qarshi ma'noli so'zlarni qiyoslash esa o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Murojaat qilish va tushunchalarni bog'lash so'z va kontekst o'rtasidagi assotsiatsiyani ta'minlaydi. Notanish so'z yoki ibora matnda qanday ma'no kasb etishi kontekst asosida tushuntiriladi. Masalan, "xazonrezgi" so'zi gapda qanday maqsadda ishlatilganini shu yo'sinda izohlanadi.

Modellar yordamida tushuntirish usuli muayyan so'z ma'nosini kengaytirish uchun u bilan bog'liqlikda ishlatiladigan predmet yoki mahsulotlarni ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Xususan, "ipak" tushunchasi ma'nosini kengaytirish uchun undan tayyorlangan narsa-buyumlardan foydalaniladi. Tushunchalarni o'zlashtirishda o'quvchiga tanish voqea-hodisa, predmet yoki obyekt misol sifatida ko'rsatiladi.

Darslikda berilgan matnlar, asosan, ko'chma ma'noli so'zlarga boy bo'ladi. Masalan, 4-sinfidagi "Kuz" asarida

shunday jumlar bor: “Gúz. Kók ala bult kúndi jasırǵısı keledi. Qızıl suwdan keyingi seńdey bolıp jılıslap bult túnjırap tumlı-tusqa jılıǵanday háreketke keledi. Qula dúzden kóterilgen quyınday qumarlanıp, kúnniń júzine boyın taslaǵısı keledi. Tandırdan shıqqan tútindey burqasınlap baratırǵan bult kún nurınan qaq ayırılǵanday kórinedi. Qoyıw qara bult kúndi qaplawǵa hárqıylı háreket etken, qanatın jayǵan búrkit tárızlı, kúnniń kórkem júzine pánje urǵısı kelgendey umtıladı” [3]. Bu jumlarada o‘quvchi so‘zlar ma’nosini ularning mazmuni bo‘yicha suhbatsiz tushunishi qiyin. Albatta, maqolaning o‘zi ularning xotirasida chuqur iz qoldirmaydi. Zero, ba’zi hollarda o‘quvchilardan so‘z-tushunchani to‘liq tushunish talab qilinmaydi. Asosiysi, ular so‘zning muhim belgilarini to‘g‘ri tushunishdir.

O‘qish savodxonligi rivojida noma’lum so‘zlarni tushuntirish bilan bog‘liq usullar qo‘l keladi:

1. Predmet yoki harakatni ko‘rsatish orqali. Masalan, “yo‘ng‘ichqa”, “ari uyasi”, “safga turdi” kabi so‘z yoki birikmalarni tushuntirish uchun ularni ko‘rsatish va harakatlar bilan ifodalash maqsadga muvofiq. “Bosh silkish” birikmasini tushuntirishda boshni yengilgina harakatlantirish, “uloqtirdi” so‘zi esa aniq va keskin harakat bilan nimanidir otish orqali ko‘rsatib izohlanadi.

2. Rasmlar orqali. Masalan, “koinot” yoki “egat” so‘zlari ma’nosini o‘qituvchi tayyor rasm, slayd yoki interaktiv doskaga chizilgan tasvir orqali tushuntirishi mumkin. Bu o‘quvchilarning so‘z ma’nosini vizual tushinishlariga yordam beradi.

3. Ma’nodosh so‘zlarni qo‘llash orqali. Masalan, “ko‘klam”, “osmon” so‘zlari ularga ma’nosi yaqinroq bo‘lgan “bahor” yoxud “falak, samo, ko‘k” kabi boshqa so‘zlarni keltirish orqali yetkaziladi.

4. So‘zlarni tushunarli jumla tarkibiga kiritish orqali. Bunda noma’lum so‘z ma’nosi aniq boshqa so‘zlar bilan qo‘shib tushuntiriladi. Masalan, “manipulyator” – “kompyuterni ishlatishda manipulyator (sichqoncha)dan foydalaniladi” kabi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun siyosiy atamalar va abstrakt tushunchalarni o‘zlashtirish qiyin, chunki ularni rasm yoki perifrast bilan aniq tushuntirib bo‘lmaydi. So‘zni boshqa so‘z bilan almashtirish esa ma’noni buzishi mumkin; masalan, “samolyot”ni “tayyora” deb o‘zgartirish tushunchani noto‘g‘ri yetkazadi, chunki bu so‘zlar sinonim emas. Bunday hollarda samarali usul – perifrazdan foydalanish yoki tushunchaning asosiy xususiyatlarini chuqur muhokama qilishdir.

Matn mazmunini tushunish o‘quvchilarning so‘z va iboralarni bog‘lash qobiliyatiga bog‘liq. Ba’zan ular so‘zlarni tushunsa ham, fikrlarni umumlashtirishda qiynaladilar. Buning sababi o‘qish jarayoniga ortiqcha e’tibor qaratilib, matn ichidagi mantiqiy bog‘liqlik e’tibordan chetda qolishidir. O‘qituvchining vazifasi – o‘quvchilarda o‘qiganini umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish. Bunga hikoya qilish topshiriqlari orqali erishiladi. Agar o‘quvchi hikoya qila olmasa, o‘qituvchi unga savollar berib, xronologik ketma-ketlikni tushunishiga yordam beradi.

Matnni tushunishda navbatdagi muhim usul turli shaklda reja tuzishdir. Bu ish turi sinflar bo‘yicha muayyan ketma-ketlikda tashkil etilishi lozim. Xususan, 3-sinfda o‘quvchilardan asar bo‘limlariga sarlavha topish so‘raladi. O‘qituvchi bo‘limlarni belgilaydi, o‘quvchilar esa sarlavhalarni o‘ylab topadi. Shuningdek, teskari tartibdagi ish ham tashkil qilinishi mumkin: o‘qituvchi bo‘limlar uchun sarlavhalar beradi, o‘quvchilar esa matndan

bo‘limlar qayerda tugashini aniqlashadi. 3-sinfda reja asar to‘liq o‘qib chiqilgandan so‘ng o‘qituvchi rahbarligida tuziladi. 4-sinfda esa o‘quvchilar rejani mustaqil ravishda tuzadilar. Bu ishlarining barchasi o‘quvchilarga o‘qilgan matnning umumiy ma’nosini tushunishni osonlashtirishga qaratilgan.

Matnni tushunish ko‘pincha ifodali o‘qishga bog‘liq bo‘lib, bu fikrlarning mantiqiy aloqasi va mazmunni anglashni yaxshilaydi. O‘qishning anglanganligini rivojlantirishda tanlab o‘qish usuli samarali hisoblanadi. Bu usul turli shakllarda qo‘llaniladi: o‘qituvchi savollar beradi, o‘quvchilar matndan iqtiboslar keltirib javob qaytaradi. Boshlang‘ich sinflarda savollar muhim jumla yoki so‘zlarga, katta sinflarda esa abzas yoki matn qismiga qaratiladi. O‘quvchilardan asarning o‘zlariga yoqqan qismlarini o‘qib berish so‘ralishi ham tanlab o‘qishning bir ko‘rinishidir. Bu usul, ayniqsa, badiiy asarlarni o‘qishda foydalanilib, matnni tushunishni osonlashtiradi, qiziqish uyg‘otadi va mazmunga e’tiborni kuchaytiradi.

Ifodali o‘qish sifatli o‘qishning asosiy ko‘rsatkichi sifatida tezkorlik, to‘g‘rilik va tushunib o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Uni o‘stirish uchun ta’limning boshidan barcha sifatlarga rioya qilish zarur. Darslar o‘quvchilarning ishtirokini, bir-birini kuzatishini va yutuq-xatolarni qayd etishini ta’minlaydi. Ifodali o‘qishda baholash mezonlari tushuntirilib, harf-bo‘g‘in qoldirmaslik, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, mantiqiy urg‘uni aniq qo‘yish, shoshmasdan aniq o‘qish, tinish belgilarga rioya qilish va qahramonlar nutqini xarakteriga mos ifodalashga e’tibor beriladi. Xatolarga doimiy e’tibor va muvaffaqiyatlarni qayd etish o‘quvchilarni mas’uliyatli bo‘lishga undaydi.

Matn ustida ishlash orqali o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish. O‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun istalgan badiiy matn asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilar qanday turdagi matnni o‘qimasin, unga bir qator talablar qo‘yiladi. Bular: har qanday badiiy asar, maqola, grammatik tahlil va orfografik mashqlarga oid matnlar sanalib, o‘quvchining yuqori imkoniyati doirasida o‘qilishi kerak. Metodist Sh.Sariyevning ta’kidlashicha, “Matn ustida ishlash mohiyat e’tibori bilan asar mazmunini o‘zlashtirish, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish va shu asosda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya berish vazifasi”ga xizmat qiladi [1]. Shu sababli, o‘qish texnikasiga bag‘ishlangan maxsus darslar tashkil qilish, matn mazmunidan uzoqlashgan holda o‘qish bo‘yicha alohida ishlash maqsadga muvofiq emas. Biroq o‘qish sifatini oshirish uchun avval o‘qib chiqilgan turli janrdagi asarlarni qayta o‘qish bo‘yicha savol tug‘iladi. Ko‘pincha o‘qituvchilar aynan shunday material orqali yaxshi o‘qishga erishishga harakat qiladilar. Qayta o‘qishning afzalligi va kamchiliklari sifatida avval o‘qib chiqilgan, mazmuni yaxshi esda qolgan va hatto ayrim iboralari ham unutilmagan hikoyalarni qayta o‘qish unchalik samarali bo‘lmashligini ta’kidlash joiz. Zero, bu jarayon o‘quvchilar uchun qiziqarli emas, chunki o‘qish faqat mexanik jarayonga aylanadi va “o‘qish texnikasi”dan nariga o‘tmaydi. Shuningdek, avval o‘qilgan matnlar faqat unutilgan taqdirdagina qayta o‘qilishi mumkin. Matn mazmunining taxminiy ravishda yodda qolganligi o‘qish jarayonini yengillashtiradi, ammo uni avtomatlashtirmaydi.

Qayta o‘qishni qiziqarli va foydali qilishda uni yangi vazifalar bilan boyitish, mazmunni qayta hikoya qilish bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. Boshqa holatda, matndan muayyan maqsadga mos bo‘laklarni ajratib olish topshirig‘i

qo'yiladi. Ko'rinadiki, to'g'ri tashkil qilingan qayta o'qish nafaqat qiziqarli, balki o'quvchilarning o'qish sifati va tushunish darajasini oshirishda muhim vositadir.

Matnlarni qayta o'qish va yangi materialni o'zlashtirish. Qayta o'qishni samarali va qiziqarli qilish uchun mavzular bo'yicha tahlil – jarayonda o'quvchilardan matndagi asosiy mavzularni aniqlash talab qilinadi. Illyustratsiya bilan boyitish usuli esa o'quvchilarning o'qilgan materiallari asosida illyustratsiyalar chizish yoki material mazmuniga oid vizual materiallar ustida ishlashini o'z ichiga oladi. Solishtirish maqsadidagi o'qish turi ham mavjud bo'lib, u o'quvchilar oldiga yangi o'qilayotgan materialni avval o'qilgan matnlar bilan taqqoslash vazifasini qo'yadi.

Yangi material ustida ishlash o'quvchining o'qish ko'nikmasini rivojlantirish uchun asosiy material sifatida doimo yangi hikoyalar, maqolalar, she'rlar yoki masallardan foydalanish lozimligini taqozo etadi. Biroq, yangi materialni qayta-qayta o'qish jarayoni uni o'quvchiga zerikarli qilib qo'yadi. Mazkur holatda matnni "yoddan o'qish" ehtimoli paydo bo'ladi, bu esa o'qish jarayonining sifatini pasaytiradi.

Yoddan o'qish she'r yoki nasriy matnlarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarning o'qish sifatini oshiradi. Maktablarda she'r yodlashga e'tibor berilgani bilan, nasriy matnlarni yodlashning ahamiyati yetarlicha e'tirof etilmaydi. Yoddan o'qish matn mazmunini chuqur anglashga yordam beradi. Nasriy matnlarni to'g'ri, tushunarli va zavqli o'qish ko'nikmasi har qanday matn bilan ishlashga ijobiy ta'sir qiladi. Yangi materiallarni o'zlashtirish, qayta o'qishni qiziqarli vazifalar bilan boyitish va yoddan o'qishni rag'batlantirish o'quvchilarda mukammal o'qish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Sariyev Sh.U. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: 2020. 44-b.
2. Usmonova O.S. 1-sinflarda ona tili va o'qish savodxonligini o'rgatishda mnemotexnikadan foydalanishning samarali usullari. Ped. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Chirchiq: 2023. 53-b.
3. Oqirw kitabi. 4-klass: Tórt jıllıq baslawısh mekteptiń 4-klası ushın sabaqlıq. – Nókis: "Qaraqalpaqstan", 2020. 216-b.
4. <https://myfarzand.uz/ozbekcha-tez-aytishlar.html>

REZYUME. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish uchun badiiy-estetik tahlil texnologiyalari, o'qishga qiziqish uyg'otish, o'qish texnikasini rivojlantirish, nutqni takomillashtirish, matn tahlili usullari hamda o'qish tezligi va tushunish darajasini yaxshilash yo'llari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются технологии художественно-эстетического анализа для повышения читательской грамотности учащихся начальных классов, пробуждение интереса к чтению, развитие техники чтения, совершенствование речи, методы анализа текста, а также способы улучшения скорости чтения и уровня понимания.

SUMMARY. The article discusses artistic and aesthetic analysis technologies for improving reading literacy in primary school students, fostering interest in reading, developing reading techniques, improving speech, methods of text analysis, and ways to improve reading speed and comprehension.

BASLAWÍSH KLASSLARDA GEYMIFIKACIYADAN PAYDALANÍP OQÍWShÍLARDÍŇ DÓRETIWShILIGIN RAWAJLANDÍRÍW

G.K.Zarimbetova – *assistent oqıtıwshı*

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so'zlar: geymifikatsiya, intellektual, kommunikativ, motivatsiya.

Ключевые слова: геймификация, интеллектуал, коммуникатив, мотивация.

Key words: gamification, intellektual kommunikativ, motivasiya.

Kirisiw. Respublikamızda ulıwma bilim beriw sistemasında, pedagogikalıq texnologiyalar hám innovaciya tarawlarında úlken reformalar ámelge asırılmaqta. Bul process baslawısh klass oqıwshılarınıń beyimlesiwi hám bilim dárejesin arttırıw, oyın túrinde bilimlendiriw hám turmıstı óz ara saykeslendiriwge baylanıslı izertlew alıp barıw zárurlıǵınıń bar ekenligin kórsetti.

O'qish ko'nikmasini baholash. O'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash o'qituvchining kundalik kuzatuvlariga asoslanadi. Biroq bu kuzatuvlar yagona mezonlarga asoslanishi lozim, chunki har bir o'quvchining o'qish mahorati turli jihatlar bo'yicha farqlanadi. Ularni baholashda o'qishning barcha jihatlarini inobatga olinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash mezonlari:

1. Tezkorlik. O'qish tezligi muhim bo'lsa-da, to'g'rilik va ongli tushunish bilan uyg'un bo'lishi kerak. Faqat tez o'qish yetarli emas; masalan, tez o'qib, tushunmaydigan o'quvchi kuchli hisoblanmaydi.

2. To'g'rilik. Xatolar kamayishi savodxonlikni oshiradi.

3. Onglilik. O'quvchining matnni tushunishi va qisqacha izohlashi muhimdir.

4. Ifodadagi xolislik. Matnni sun'iy pafossiz, tabiiy intonatsiya bilan o'qish haqiqiy ifoda uchun asosdir.

O'qituvchi o'qish ko'nikmalarini baholash uchun qisqa qaydlar olib borishi maqsadga muvofiq. Jumladan, "O'quvchi sekin o'qiydi, ammo to'g'ri va ongli, lekin yetarli darajada ifodali emas", "Tez o'qiydi, ammo so'zlarni buzadi va matnni tushunishda qiyinaladi, o'qishi ifodasiz", "Tez, to'g'ri va ongli o'qiydi, yetarli darajada ifodali", "O'rtacha tempda o'qiydi, o'qish to'g'ri, ongli va ifodali", "Temp juda sekin, ammo o'qish ongli va ravon".

Xulosa. Xulosa qilganda, o'quvchilarning o'qish savodxonligini aniq baholash mavjud kamchiliklarini tushunib, ular ustida ishlash imkonini beradi. Shu tarzda har bir o'quvchining individual xususiyatlariga ko'ra muvofiq ta'lim berish usullari tanlanadi.